



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA VIJDON ERKINLIGI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tyutori

Xurramov Yashin Xalilovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada vijdon erkinligini himoya qilishning huquqiy va ijtimoiy asoslari yoritiladi. Vijdon erkinligi nafaqat diniy masalalarni, balki insonning shaxsiy fikr va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Maqolada, mazkur huquqning jamiyatda erkinlik va tinchlikni ta'minlashdagi roli, shuningdek, xalqaro huquq nuqtai nazaridan uning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Vijdon erkinligi, diniy e'tiqod, shaxsiy erkinlik, huquqiy himoya, inson huquqlari, xalqaro huquq, fuqarolar huquqlari, erkinlik ta'minoti.

Аннотация: В данной статье рассматриваются правовые и социальные основы защиты свободы совести. Свобода совести включает в себя не только религиозные вопросы, но и возможность выразить свои личные мысли и взгляды. В статье рассматривается роль этого права в обеспечении свободы и мира в обществе, а также его значение с точки зрения международного права.

Ключевые слова: Свобода совести, религиозные убеждения, свобода личности, правовая защита, права человека, международное право, гражданские права, обеспечение свободы.

Abstract: This article discusses the legal and social foundations of the protection of freedom of conscience. Freedom of conscience includes not only



religious issues, but also the ability to express a person's personal thoughts and views. The article examines the role of this right in ensuring freedom and peace in society, as well as its significance from the point of view of international law.

Keywords: *Freedom of conscience, religious belief, personal freedom, legal protection, human rights, international law, citizens' rights, ensuring freedom.*

Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha, har kimning o‘z e’tiqodiga ko‘ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me’yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo‘yicha yashash, ishlash imkoniyatiga ega. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan vijdon erkinligiga demokratiya ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda doimo muhim va murakkab masala bo‘lib kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog‘lom va barkamolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va bajaradigan vazifalari g‘oyat muhimdir. Vijdon erkinligi insonning eng muhim haqlaridan bo‘lsa-da, qonunda o‘z ifodasini topib, muhofaza ostiga olingandagina chin ma’noda huquq darajasiga ko‘tariladi. Aks holda, shaxsning qalb kechinmalarini ifodalovchi bu huquq haqiqiy ma’nosini yo‘qotadi. Diniy qarash va ta’limotlarning turlicha talqin qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida “noqonuniy diniy faoliyat” bilan “qonuniy diniy faoliyat” o‘rtasidagi chegara aniq belgilab qo‘yildi hamda “diniy ta’lim” tushunchasiga huquqiy jihatdan aniqlik kiritildi. Shuningdek, Qonun bilan belgilab qo‘yilayotgan vijdon erkinligini ta’minlash sohasidagi asosiy ustuvorliklar konfessiyalar o‘rtasida tinchlik va totuvlikni



ta'minlash, dunyoviy davlatchilik tamoyilini kafolatlash, shuningdek, aholi ongi va qalbiga yot g'oyalarning singdirilishiga qarshi ma'rifat yo'li bilan kurashishni nazarda tutadi. Mazkur Qonun diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga, dinning asl mohiyatini anglashga, buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilishga, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga munosib hissa qo'shadi. Vijdon erkinligi huquqi BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1981-yil 25-noyabrda qabul qilingan 36–55-son Rezolyutsiyasida belgilangan insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon yerkinligi o'z ifodasini topgan. 1948-yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati xalqaro tashkilotlar tomonidan yurtimizga berilayotgan e'tibor, uning yanada gullab yashnashi, taraqqiy etishiga o'zining ulkan ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, xalqimizning qo'llab-quvvatlashi bilan yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasida O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani belgilangan. Konstitutsiyaviy huquqlar, erkinliklar kafolatlangan yurtda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi keng jamoatchilikning e'tiboriga, xalqimiz muhokamasiga havola etilganining o'zi demokratik yondashuvdir. O'zbekistonda Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhimdir. Mustaqillik, yangilanish jarayoni hamma sohalar kabi vijdon erkinligi,



davlat va din, dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar o'rtasidagi munosabatlar sohasini ham o'z ichiga oldi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida asrlar osha qaror topgan vijdon erkinligiga yuksak va samimiy hurmat ifodalangan. Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, uning asosida, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi». Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo'yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib borayotgani buning amaliy ifodasidir. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun. Ushbu qonun 1991-yilda qabul qilingan bo'lib, 1993-yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998-yilga qadar amalda bo'lib keldi. Davr talablari asosida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunni tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi va 1998-yil 1-mayda u yangi tahrirda qabul qilindi. Kiritilgan o'zgartirishlar nimalardan iborat edi? Jumladan, Qonunning 8-moddasiga asosan, diniy tashkilotlar 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi, muayyan konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning respublika bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organi tuzilishi mumkinligi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari etib saylanishlari, bunday lavozimga xorijiy fuqarolar nomzodlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishib olinishi belgilab qo'yildi. Qonunning 9-moddasiga muvofiq diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur



bo‘lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o‘quv yurtlari tuzishga haqlidir. Qonunning 5-moddasida bir konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu moddaning mazmuni va ahamiyatini tushunish uchun missionerlik va prozelitizm nima ekanini bilib olish kerak. Missionerlik – bu boshqa diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan aholini o‘z diniga og‘dirib olishlik bo‘yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat. Prozelit – bu o‘z dinidan kechib, boshqa dinga o‘tgan odam. Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli bo‘lgan 19-moddasi ham bir qadar o‘zgartirildi: «Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo‘ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir». Mazkur qoida O‘zbekiston hududiga diniy adabiyotlarning olib kirilishini tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Uning hududida 16 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladilar. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligi ifodasi sifatda vijdon erkinligini ta‘minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat deb belgilandi:

- fuqarolarning dinga munosabatidan qat’i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo‘lgan o‘z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;
- konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash;
- vijdon erkinligini ta‘minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;



- vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta‘minlash;
- jamoat tartibiga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog‘lig‘i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g‘oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish;
- Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vijdon erkinligini, shuningdek, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikning amalda izchil hamda bir xil tarzda qo‘llanilishini ta‘minlashga doir choralarning amalga oshirilishi uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli davlat organidir.

Darhaqiqat, Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan vijdon erkinligi har bir fuqaroga biror dinga e‘tiqod qilish yoki birorta dinga e‘tiqod qilmaslik huquqini kafolatlaydi. Ammo dunyoning hozirgi globallashuv jarayoni, ayniqsa, yoshlarni «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yurtimizga kirib kelayotgan turli g‘ayriaxloqiy, buzg‘unchi g‘oyalar ta‘siridan asrashni har qachongidan dolzarb vazifa qilib oldimizga qo‘ymoqda. Shu bois yoshlarning diniy bilimni boyitish, dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishning ahamiyati tobora ortayotir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi kafolatlangan bo‘lib, bu shaxsiy huquqlar va erkinliklarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Vijdon erkinligi har bir fuqaroning diniy e‘tiqodini tanlash va unga amal qilishda erkin bo‘lishini ta‘minlaydi. Konstitutsiyada vijdon erkinligi ta‘minlanishi, nafaqat shaxsiy huquqlarni hurmat qilish, balki jamiyatda diniy bag‘rikenglik, tinchlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O‘zbekiston», 1997. – B. 43–44.



2. https://constitution.uz/oz/pages/konstitutsiya_vijdon_erkinligi
3. <https://iaau.uz/oz/news/2137>
4. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri) O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: 1998. – B. 8.
5. Z.M.Islomov, N.A.Muhamedov, F.A.Sindarova “Dinshunoslik” TOSHKENT «Niso oligraf» 2016